

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida"gi 274- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalgaga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiqu qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

38 428

112,8 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

37 200

110,6 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar
(2020-yilda)

2 800


58,5 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalgaga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyat hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyat ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-iyun oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-iyun oylarida 2 800 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 813 ta, xususiy korxonalar – 453 ta, oilaviy korxonalar – 402 ta, unitar korxonalar – 31 ta va boshqalar – 116 tani tashkil etdi.


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (17,7 %), Qo'qon shahar (13,3 %), Marg'ilon shahar (10,1 %), Uchko'prik tumani (5,3 %), Dang'ara tumani (4,7 %), Oltiariq tumani (4,6 %), Quva tumani (4,5 %), O'zbekiston tumani (4,4 %), Buvayda tumani (4,3 %), Toshloq tumani (4,3 %), Farg'ona tumani (3,8 %), Bag'dod tumani (3,5 %), Rishton tumani (3,3 %), Qo'shtepa tumani (3,1 %), Quvasoy shahar (3,2 %), Beshariq tumani (3,1 %), Furqat tumani (2,4 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,6 %), Qo'qon shahar (12,0 %), Marg'ilon shahar (10,2 %), Uchko'prik tumani (5,3 %), Dang'ara tumani (3,8 %), Oltiariq tumani (5,7 %), Quva tumani (5,5 %), O'zbekiston tumani (4,1 %), Buvayda tumani (4,3 %), Toshloq tumani (5,4 %), Farg'ona tumani (4,2 %), Bag'dod tumani (4,3 %), Rishton tumani (4,3 %), Qo'shtepa tumani (2,7 %), Quvasoy shahar (4,5 %), Beshariq tumani (3,0 %), Furqat tumani (2,4 %), So'x tumani (2,2 %), Yozyovon tumani (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 4100 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 596 taga yoki 117,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 916 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 447 taga yoki 112,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 402 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 366 taga yoki 52,3 % ga kamayganini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	2 475	3 469	3 916
shu jumladan:			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	237	268	273
Sanoat	1 204	1 595	1773
Qurilish	34	32	52
Savdo	329	664	811
Tashish va saqlash	58	75	76
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	331	466	529
Axborot va aloqa	31	31	33
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18	31	42
Boshqa turlar	233	307	327

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra 446 tani tashkil etib, ulardan 433 tasi yoki 97,1 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 95 taga yoki 127,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 31 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	175	234	348	433
<i>Shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	4	24	26
Sanoat	126	164	205	250
Qurilish	4	5	7	12
Savdo	14	29	61	76
Tashish va saqlash	4	4	6	12
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	9	13	15
Axborot va aloqa	3	2	4	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	6	7	9
Boshqa turlar	10	11	21	29


**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	446	300	146
Oltiariq tumani	20	13	7
Qo'shtepa tumani	8	5	3
Bag'dod tumani	10	8	12
Buvayda tumani	9	8	1
Beshariq tumani	6	4	2
Quva tumani	17	10	7
Uchko'prik tumani	15	10	5
Rishton tumani	12	10	2
So'x tumani	4	3	1
Toshloq tumani	14	10	4
O'zbekiston tumani	21	19	2
Farg'ona tumani	26	15	11
Dang'ara tumani	18	9	9
Furqat tumani	5	2	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	153	102	51
Qo'qon shahar	56	34	22
Quvasoy shahar	26	21	5
Marg'ilon shahar	21	16	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalarning asosiy qismi Farg'ona shahrida 153 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 34,3 %), Qo'qon shahar 56 ta (12,6 %), Quvasoy shahar 26 tani (5,8 %), Farg'ona tumani 26 ta (5,8 %), Qo'shtepa tumani 8 ta (1,8 %), Beshariq tumani 6 ta (1,3 %) hamda So'x tumanida 4 tani (0,9 %) tashkil etadi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari soni		01.07.2020 jamiga nisbatan %
	01.07.2019- yil	01.07.2020- yil	
Farg'ona viloyati	27 662	31 183	100,0
Oltiariq tumani	1237	1409	4,5
Qo'shtepa tumani	849	930	3,0
Bag'dod tumani	899	1045	3,4
Buvayda tumani	1241	1371	4,4
Beshariq tumani	749	847	2,7
Quva tumani	1150	1315	4,2
Uchko'prik tumani	1493	1654	5,3
Rishton tumani	746	876	2,8
So'x tumani	621	695	2,2
Toshloq tumani	1230	1429	4,6
O'zbekiston tumani	1208	1343	4,3
Farg'ona tumani	917	1084	3,5
Dang'ara tumani	1359	1525	4,9
Furqat tumani	606	699	2,2
Yozyovon tumani	522	596	1,9
Farg'ona shahar	5061	5559	17,8
Qo'qon shahar	3953	4358	14,0
Quvasoy shahar	819	987	3,2
Marg'ilon shahar	3002	3461	11,1

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (13,5 %), Qo'qon shahar (12,1 %), Marg'ilon shahar (10,3 %), Uchko'prik tumani (5,3 %), Dang'ara tumani (3,7 %), Oltiariq tumani (5,8 %), Quva tumani (5,5 %), O'zbekiston tumani (4,2 %), Buvayda tumani (4,2 %), Toshloq tumani (5,5 %), Farg'ona tumani (4,0 %), Bag'dod tumani (4,4 %), Rishton tumani (4,2 %), Qo'shtepa tumani (2,7 %), Quvasoy shahar (4,6 %), Beshariq tumani (2,9 %), Furqat tumani (2,3 %), So'x tumani (2,2 %), Yozyovon tumani (2,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri-axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtি-vaqtি bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayatganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a section titled "RASMIY STATISTIKA" with various links like "Elon qilish taqvimni", "Metamalumotlar", etc. The central search interface is for "Korxonalar pasporti" (Company passport), which requires a "Kodni kiritning" (Enter code) and a "Qidiruv" (Search) button. To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to various reports and strategies.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyat statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 249-87-34**